

BOSHLANG'ICH SINF DARSLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI FOYDALANISH AFZALLIKLARI

Turdibaeva Feruza Daniyar qizi

Azizova Guljamal Nurimbet qizi

A'jiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutining

Boshlang'ich ta'lif yo'naliishi 4-kurs talabalari.

Qoraqalpog'iston, Nukus

Annotatsiya: Boshlang'ich sinf o'quvchilarni o'qitishning mohiyati va samaradorligini oshirishda zamonaviy axborat texnologiyalarning ahamiyati va qollash tartibi xususidagi masalalar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinf, axborat texnologiya, slayd, elektoron vositalar, kompyuter, videorolik, pedagogika, talim, islohatlar

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin xalqaro andozalar talabiga javob beradigan milliy kadrlarni tayyorlash masalasi eng dolzarb bo'lib, xalq xo'jaligining barcha sohalarida, jumladan ta'lif sohasida ham islohotlar o'tkazilmoqda. Hozirgi kunda O'zbekistonda barcha soha vakillariga ayniqsa, o'qtuvchilarga katta e'tibor qaratilyabdi va keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Ta'lif berish sifatini oshirish masalasi uzliksiz ta'lifning barcha bosqichlarida asosiy vazifa qilib qo'yilmoqda. Mamlakatimizni buyuk davlat darajasiga ko'taradigan barkamol shaxslarni yaratishda boshlang'ich ta'lif poydevor vazifasini bajaradi. Bunda boshlang'ich sinf o'qtuvchisi va albatta o'quvchiga ma'sul shaxsning vazifasi katta. O'qtuvchining asosiy maqsadi - o'quvchilarga sifatlari bilim berish, o'quvchilarning tartib-intizomli, fikirlash doirasi keng bo'lishini taminlashdir. O'quvchilarning ongi va tafakkuri fikir yuritishi endigina shakillanib kelayotgan boshlang'ich sinflarda oqtuvchining mahorati, zamonaviy texnologiyalarni ta'lif jarayoniga mohirona tadbiq eta olishi ilg'or pedagogik tajribalardan mohirona foydalana olishi ta'lif berishning yangi usullarini tanlashi juda muhim ahamiyat kasb etadi. Ja'miyatning har bir a'zosi, o'zining kundalik faoliyatida, uzliksiz ravishda turli axborot resurslaridan foydalanadi. Doimiy ravishda ortib borayotgan axborotlar hajmi jamiyatdagi intellektual salohiyatning oshishiga xizmat qiladi. Modomiki shunday ekan, o'qituvchi ham o'z kasbiy va pedagogik mahoratini zamonaviy axborot texnologiyalari oqimi asosida oshirib borishi mumkin. Har bir o'qituvchi mehnat faoliyati jarayonida axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishi uchun avvalo o'zi axborot muhitini shakllantirishga zamin yaratishi lozim. Zamonaviy axborot texnologiyalari o'z muhitida axborot ob'ektlarini, ularning o'zaro aloqasini, axborotlarni yaratish, tarqatish, qayta ishslash, to'plash texnologiyalari va vositalarini, shuningdek axborot jarayonlarining tashkiliy va huquqiy tarkibini mujassamlashtiradi.

Axborot so'zi lotincha «information so'zidan kelib chiqqan bo'lib», «tushuntirish, bayon etish» degan ma'nolarni anglatadi. «Axborot texnologiyalari» iborasidagi «texnologiya» so'zi lotincha «thexnos» - san'at, xunar, soha va «dogos» fan degan ma'noni bildiradi. Ya'ni texnologiya-biror vazifani bajarishda uning turli xil usullari ko'rinishini bildiradi. Boshlang'ich sinflar o'quvchilari uchun turli didaktik materiallar to'plamidan foydalanib, ko'rgazmali-mashq, nazorat- mashqlari va test sinovlari modullari kiritilgan aralash kompyuter dasturlarini tayyorlash mumkin. Unga fanga oid qoidalarni joriy o'rganish va umumlashtirilgan takrorlash uchun uchta variantlarda berilgan grammatika-orfografik mavzular bo'yicha boy va turli-tuman materiallardan foydalanish yaxshi samara beradi. 1-sinfda ona tili va o'qish savodxonligi darsida elektron o'quv qo'llanmalari tayyorlab, foydalanish mumkin. Unda so'zni tovushli-harfli tahlil qilish, so'zning bo'g'inlari tuzilishi, ba'zi orfogrammalar o'rganilishi turli qiziqarli ko'rgazmali va ovozli material berish mumkin. Yorqin rasmlar, g'aroyib, qiziqarli topshiriqlar kichik yoshdagi o'quvchilarda ona tiliga qiziqishni oshirishga yordam beradi, o'yin shaklida o'quv materiali bilan tanishish imkonini beradi, o'zini nazorat qilish va o'quv refleksiyasi uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi. Umumta'lim maktablarning moddiy-texnika resurslari ortib borishi bilan matematika darsida o'qituvchi an'anaviy ko'rsatmali vositalarni kompyuter slaydlari bilan almashtirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Turli murakkablik darajasidagi turli xildagi topshiriqlar har bir o'quvchining idrok etish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Masala syujetining dinamikasi slaydlarda yoki multiplikatsiya orqali ko'rsatib berilishi mumkin. Bunday vositalar ayniqlsa, murakkab masala ustida ishlashda, o'zaro proportsional bog'langan miqdorlarga oid masalalarni tushuntirishda va ayniqlsa harakatga doir masalalarni yechishda qo'l keladi. O'qituvchi eng oddiy slaydlarni o'zi yaratish imkoniga ega. Keyinchalik esa, bunday ko'rsatmali elektron vositalar mutaxasislar yordamida tayyorlanib, maktablarga tarqatilishi ham mumkin bo'ladi. Biz quyida ba'zi bir masalalar uchun slaydlar namunalarini keltirishga harakat qildik. Masala Kitob javonida 3 kitob bor edi. Ularning og'irligi 350 g, 225g va 375 g.

- Kitoblarning jami og'irligi qancha?
- Jami kitoblar og'irligi 1 kilogramnan og'irmi yoki yengil?
- Qaysi kitob og'ir? Qaysi biri yengil?

Yechish. Ekranda masalaning matni keltirilgach, rasmlar paydo bo'ladi. Berilgan kitoblarning massalarin qo'shish amali bilan hisoblaydi va pastagi berilgan so'roqlarga javob beradi. So'ngra ekranda yechimi va javobi beriladi. Kitoblarning jami og'irligi 950 g. Jami kitoblar og'irligi 1kg nan yengil. Demak, slayddan foydalanish o'quvchiga amaliy ishlab (ko'z oldiga keltirib) masalaning yechimini topishga yordam beradi. Ma'lumki, ko'z bilan ko'rish eshitishdan ko'ra o'quvchi xotirasida yaxshi saqlanadi. SHuningdek, kompyuter orqali bir marta ko'rsatilib, o'tilgan taqdimot va slaydlarni qayta ko'rib chiqish mumkin. Bu esa masalalarning yechish jarayonini va shunga

o'xshash tushunchalarning ta'riflanish holatini takroran ko'rish imkoniyatini beradi. O'quvchilarga kompyuter vositalari asosida amaliy mashqlar bajarishga shart-sharoit yaratish o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasini oshirishga olib keldi. «Tabiatshunoslik» fani bo'yicha barcha mavzulari bo'yicha kompyuter testlarini ishlab chiqish mumkin. Masalan: «O'lkamiz suv havzalari», «Ona zamin», «O'rmon va dalalar- tabiat boyligi», «Qishloq xo'jaligi sohalari», «Bizning o'lka», «Yer osti boyliklari», «O'lkamiz hududiy tuzilishi», «O'lka chorvachiligi va o'simliklari» va boshqa mavzular boyicha slayd, qisqacha animaciyon videroliklar orqali yoritib berishi mumkin.

Boshlang'ich sinf darslarida axborat texnologiyalarni foydalanish abzallikkabi:

1) Slayd va videroliklarni yordamida har bir darsning aniq, ravon va tushinarli bo'lib o'tishi ta'minlanadi. O'qishga qiziqishi kuchayadi va o'quv materialini tez yod oladi.

2) O'quvchilar faxat kitobni o'qish bilan chegaralanib qolmaydi. Agar o'qivchilarga faxat kitob yordamida dars o'tilsa o'quvchar zerikadilar va mavzuni yaxshi o'zlashtira olmaydilar. Mavzu bo'yicha qisqa video lavhalar esa buni oldini oladi, dars qiziqarli o'tishini ta'minlaydi.

3) Zamonaviy texnologiyalar yordamida albatta darsni didaktik o'yin ko'rinishida o'tkazish ham mumkin.

4) Dars paytida dam olish minutlarini videoroliklar yordamida o'tkazish mumkin. Bu darsga o'quvchilarni qiziqishini yana ham ortishiga yordam beradi.

5) Zamonaviy axborat texnologiyani yana bir abzallik tarafi uni faxat bitta fanda emas boshlang'ich sinflarda barcha dars jarayonlarida qo'llash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, nafaqat ona tili, matematika ta'limi fanini, balki boshqa fanlarni ham o'qitishda biz misol sifatida keltirayotgan fanlar fondini yaratish, undan foydalangan holda mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish, ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish yaqin kelajakda o'zining yuksak natijasini berishi shubhasizdir. Zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarda jadal fikrlash, zamonaviy texnika bilan erkin ijodiy muloqot ko'nikmalarini shakllantiradi va rivojlantiradi. O'quvchida tez bilib olishga, ixcham va jadal fikrlashga, o'z bilim va malakasini darhol namoyish etishga ishtiyoq, o'z bilimiga ishonch ortadi. Qisqa qilib aytganda, kompyuter bilan muloqot o'quvchini o'z-o'zidan ta'lim jarayonining sub'ektiga aylantiradi. Kompyuter dasturi uni faol ishlashga, tez fikrlashga, fikrni aniq va qisqa ifodalashga o'rgatadi. Bunday samara esa bugungi kunda ayni muddaodir. Demak, axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga olib kirishni davr talab qilayoabdi. Bu talabga javob bera olish uchun o'qituvchi bunday texnologiyani puxta bilishi, yuksak mahorat bilan qo'llay olishi, o'rganiladigan materiallarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularni to'g'ri tanlay olishi lozim. Bu boshlangich sinflarda, ayniqsa muhim. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy

salohiyati va ma'lumot darajasi, zamonaviy ta'lim metodikasini bilishi ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Hozirda o'qitish jarayonida qo'llaniladigan ta'lim metodlari va vositalari, o'qitish jarayonini tashkil etish, zamonaviy shakllarini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yuqorida fikrlarga xulosa qilib shuni aytish lozimki boshlang'ich ta'lim sifat va samaradorlikni rivojlantirishda o'qituvchining kasbiy kompetentligi va o'qimishlilik darajasi, bolalar psixologiyasi, zamonaviy pedagogik axborot texnologiyalarni puxta bilishi boshlang'ich ta'lim sifat va samaradorligi ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalar asosida dars o'tish ta'lim samaradorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda mavzuni o'rganishga ishtiyoy va qiziqishini oshiradi, bilimlarni mustahkamlash, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumayev M.E. va boshqalar. Matematika o'qitish metodikasi (kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma) - T.: "Ilm- Ziyo", 2003,
2. Jumayev M.E., Matematika o'qitish metodikasidan praktikum"- Toshkent: O'qituvchi, 2004,
3. Bikbayeva N.U, Yangabayeva E, K.Girfanova "Kichik yoshdagi mакtab o'quvchilarini boshlang'ich matematik ta'limning Davlat ta'lim standartlari asosida o'qitish" :- 2008, "Turon-Iqbol",
4. Karima Qosimova Safo Matchonov, Xolida G'ulom ova, Sharofat Yo'ldosheva "Ona tili o'qitish metodikasi"-Toshkent.2009.